

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB O'ZGARISHLAR (O'ZBEKISTON)**

Xolikulov P. – Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, NTM dotsenti, Qarshi shahri

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, maktab ta'limi, inklyuziv maktabgacha ta'lim, davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti, xususiy maktabgacha ta'lim tashkilotlari, davlat-xususiy sherikchlik maktabgacha ta'lim tashkilotlari, zamonaviy ta'lim dasturlari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari.

Ключевые слова: дошкольное образование, школьное образование, инклюзивное дошкольное образование, государственная организация дошкольного образования, частные организации дошкольного образования, организации дошкольного образования в рамках государственно-частного партнерства, современные образовательные программы, современные образовательные технологии.

Key words: preschool education, school education, inclusive preschool education, state preschool education organization, private preschool education organizations, preschool education organizations within the framework of public-private partnerships, modern educational programs, modern educational technologies.

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tizimida ro'y bergan tub o'zgarishlar haqida fikr yuritiladi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bugungu kunning dolzab vazifasi deb e'lon qilindi. Sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida bugungu kunda mulkchilik shaklining turli shaklidagi – davlat, nodavlat, oilaviy va davlat-xususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyat yuritayotganligi fikrimizning dalilidir.

Аннотация. В статье рассматриваются фундаментальные изменения, произошедшие в системе дошкольного образования в Новом Узбекистане. Развитие системы дошкольных образовательных учреждений, вовлечение детей в дошкольные образовательные учреждения и их подготовка к школе были признаны одной из приоритетных задач государственной политики в сфере образования. В нашей стране,



прежде всего, были созданы благоприятные организационно-правовые условия для воспитания гармоничного поколения. Расширение сети дошкольных образовательных учреждений, обеспечение их квалифицированными педагогическими кадрами, радикальное повышение уровня подготовки детей к школьному образованию, внедрение современных образовательных программ и технологий в образовательный процесс, а также создание условий для всестороннего интеллектуального, нравственного, эстетического и физического развития детей были объявлены актуальными задачами современности. В результате проведенных в этой сфере реформ дошкольные образовательные организации сегодня функционируют в различных формах собственности – государственной, негосударственной, семейной и государственно-частной.

Abstract. This article examines the fundamental changes that have occurred in the preschool education system in New Uzbekistan. The development of the preschool system, the involvement of children in preschools, and their preparation for school have been recognized as a priority objective of state education policy. In our country, favorable organizational and legal conditions for raising a harmonious generation have been created. Expanding the network of preschool educational institutions, providing them with qualified teaching staff, radically improving the level of children's preparation for school education, introducing modern educational programs and technologies into the educational process, and creating conditions for the comprehensive intellectual, moral, aesthetic, and physical development of children have been declared pressing tasks of our time. As a result of reforms carried out in this area, preschool educational organizations today operate under various forms of ownership – state, non-state, family, and public-private.

Kirish. Olimlar olib borgan tadqiqotlarga ko'ra inson o'z hayoti davomida oladigan barcha ma'lumotlarning 70 foizini besh yoshgacha bo'lgan davrda olishi isbotlangan. Haqiqatan ham bu davrda inson bolasi dunyoni anglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila, mahalla, Vatan kabi tushunchalarni anglaydi va ularga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlarga zamin hozirlaydi. Bunda, eng avvalo, oilada ota-ona tarbiyasi va ibrati asosiy rol o'ynasa, maktabgacha ta'lim muassasasining hissasi ham bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababdan ham Yangi O'zbekistonda aynan maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'lim zanjirining asosiy bo'g'iniga aylandi.

Asosiy qism. Albatta, maktabgacha ta'limga e'tibor kecha yoki bugun paydo bo'lib qolgani yo'q. Ortga nazar tashlaydigan bo'lsak, mustaqilligimizning boshidanoq mamlakatimizda ta'limni tubdan isloh qilish borasida muhim ishlar amalga oshirildi, mohiyatan hech qaysi davlatda mavjud bo'lmagan uzluksiz ta'lim tizimi shakllantirildi. Ya'ni yosh avlodning maktabgacha ta'lim muassasalaridan to oliy ta'limgacha bo'lgan uzluksiz bilim olishlari, kasb o'rganishi uchun shart-sharoitlar yaratish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.



Bu borada, ayniqsa, maktabgacha ta'lim muassasalari tizimini rivojlantirish, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etish, maktabga tayyorlash masalalari ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri deb qaraldi. Mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalash uchun, eng avvalo, qulay tashkiliy-huquqiy sharoitlar yaratildi.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29- dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori ushbu tizim faoliyatini yangi bosqichga ko'tarish, sohani bugungi kun talablari darajasida modernizatsiya qilishga xizmat qilmoqda.

Prezident qarorida *"maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish"*dek ezgu vazifalar qo'yilgan [1].

Davlatimiz rahbarining qarori bilan tasdiqlangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Davlat dasturida keng ko'lamli strategik maqsadlar, muhim vazifalar belgilangani bilan ahamiyatlidir. Xususan, hujjatda bugungi kundagi hayotiy talab va ehtiyojlar, sohada yechimini kutayotgan masalalar hamda hali ishga solinmagan imkoniyatlar hisobga olinganligi xalqimizni quvontirdi.

Ayniqsa, kelgusi besh yillikda 2200 ta maktabgacha ta'lim muassasasining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, jumladan, qishloq aholi punktlarida yangi maktabgacha ta'lim muassasalarini qurish, ularni zamonaviy talablarga javob beradigan inventar, uskunalar, o'quv-metodik qo'llanmalar, multimedia resurslari bilan ta'minlash hamda ushbu maqsadlar uchun jami 2,2 trillion so'm mablag' ajratilishi ko'zda tutilayotgani ushbu qaror o'z ichiga nechog'lik keng ko'lamli vazifalarni qamrab olganligini ko'rsatadi [2].

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-may, 391-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida"gi NIZOMda quyidagilar maktabgacha ta'lim tashkilotlari vazifalari etib belgilangan:

- bolalarga, shu jumladan, o'ziga xos ehtiyojlari bor bolalarga yakka tartibda ta'lim dasturlaridan foydalanish, shuningdek, o'z vaqtida inklyuziv maktabgacha ta'lim va tarbiya olish imkonini beradigan qulay muhit yaratish;
- bolalarda Vatanga muhabbat tuyg'usini, oilaga, o'z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish;
- bolaning shaxsini shakllantirish, uning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiy tajriba orttirishini ta'minlash;
- bolaning jamiyatga moslashuvini va boshlang'ich ta'limga tayyorligini ta'minlash;



- ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarni joriy etish [3].

Haqiqatan ham, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tashkilotlari sonini keskin oshirish zarurati hayotiy ehtiyojga aylandi. 2017-2020-yillarda tarmoq, soha, yo'nalishlar va hududlar bo'yicha maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish bo'yicha erishilgan asosiy ko'rsatkichlarga e'tiborni qaratsak: O'zbekiston Respublikasida 2017-yilda – 5 211 ta, 2018-yilda – 7 104 ta, 2019-yilda – 13 530, shu jumladan, 6 197 davlat va 12 057 nodavlat, 788 ta xususiy, 10 244 ta oilaviy va 1 025 ta davlat-xususiy sheriklik asosidagi, 2020-yilning oxiriga kelib, 18 254 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yildi.

2020-yilda 3-7 yoshli bolalarning umumiy sonidan (2,7 mln) maktabgacha ta'lim tizimi bilan 1 699 566 yoki 62,9% nafar bola qamrab olindi. Bu raqam oldingi yillarda: 2017-yilda – 708 247 yoki – 27,7% ; 2018-yilda – 932 310 yoki – 37,7% ; 2019-yilda – 1 413 29 yoki 52,3 foizni tashkil etgan edi. Shu jumladan, 6 yoshdagi bolalarning umumiy sonidan (658 961 bola) maktabgacha ta'lim bilan 494 220 bola qamrab olindi. Shu bilan birga, xususiy va davlat sektoridagi maktabgacha ta'lim tizimida 116 996 nafar pedagog ish bilan ta'minlandi, ularning 36 990 nafari – 31,6 foizi oliy ma'lumotga va 80 006 nafari – 68,4 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega, bu raqam 2017-yilda – 21,6 foizni tashkil etar edi.

2023-yilga kelib esa maktabgacha ta'lim tashkilotlari soni 33942 taga yeykazildi. 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrab olinishi 74 % ni tashkil etgan bo'lsa, 6 yoshli bolaning maktabga tayyorlov guruhlariga qamrab olish 93 % ni tashkil etdi. Davlat-xususiy sherikchilik asosida 7 100 o'rinli 71 ta, oilaviy shaklda 116 998 o'rinli 4 402 ta nodavlat ta'lim tashkiloti tashkil etildi.

Davlat-xususiy sherikchilik asosida 7100 o'rinli 71 ta, oilaviy shakldagi 116 998 o'rinli 4 402 nodavlat tashkiloti tashkil etildi. Shuningdek, 26 890 o'rinli 168 ta obyektни qurish va rekonstruksiya qilish ishlari amalga oshirilib ular foydalanishga topshirildi [4].

Maktabgacha ta'lim tizimini isloh qilish, bolalarni sog'lom va har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash, ularning ta'lim olishlari uchun ta'lim va tarbiyaning zamonaviy shakllaridan foydalanish, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlash, bolalarni sog'lom ovqatlanishlari va ularning xavfsizligi uchun zarur talablar nazoratini amalga oshirilishini belgilovchi ***“Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat standarti – ta'lim-tarbiya jarayonining hajmiga, mazmuniga va sifatiga, maktabgacha ta'lim tashkilotini qurish va jihozlashga, shuningdek maktabgacha yoshdagi bolalarning sog'lom ovqatlanishini va xavfsizligini tashkil etishga doir majburiy talablar majmui”*** – tasdiqlandi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi bir qator yo'nalishlarning huquqiy asoslari yaratildi.

Pedagogning kasbiy standarti maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim muhitini tashkil qilish, ta'lim va tarbiya jarayonini rejalashtirish, bolalarga ta'lim-tarbiya berish, bolalarning rivojlanish jarayonini kuzatish, oila bilan hamkorlik, kasbiy rivojlanish kabi vazifalarini sifatli bajarishi uchun zaruriy bo'lgan asosiy kompetensiyasini belgilaydigan



“Maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining kasbiy standarti – maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogining shaxsiy kasbiy sifatlariga, bilimlariga, mahorati va ko‘nikmalariga doir asosiy talablar majmui” – ham ishlab chiqildi.

Raqamli innovatsion-rivojlantirish platformasi orqali maktabgacha ta’lim tizimida faoliyat yuritib kelayotgan 6 mingga yaqin pedagog kadrlarning malakasi oshirilishiga erishildi.

Bolalarni boshlang‘ich ta’limga majburiy bepul bir yillik tayyorlash bo‘yicha dastlabki loyihaning ijobiy tajribasini boshqa hududlarda ham tatbiq etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi. Pandemiya davrida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta’lim bilan to‘liq qamrab olish va ularni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida *“Onlayn bog‘cha”* teleko‘rsatuvi efirga uzatilib borildi. Pandemiya va yakkalanish sharoitida ommaviy axborot vositalari orqali ushbu loyihaning uzatilishi 6 yoshli bolalarning qamrovini kengaytirishning eng samarali va kamchiqim usuli bo‘lib xizmat qildi.

YUNISEF xalqaro bolalar tashkiloti bilan hamkorlikda o‘quv dasturlarini amaliyotga joriy etish bo‘yicha 6 ta yo‘nalishdan iborat o‘quv-metodik qo‘llanmalar ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga qilgan tashrifi davomida berilgan topshiriqlarga muvofiq, hududlarda bolalarni maktabgacha ta’limga qamrab olish bo‘yicha belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishildi. Jumladan, 2020-yil oxiriga kelib maqsadli qamrab olish ko‘rsatkichi respublika bo‘yicha 60%, Andijon viloyatida 61,3%, Buxoro viloyatida 62,5%, Navoiy viloyatida 74,8%, Namangan viloyatida 62,9%, Sirdaryo viloyatida 70,1%, Farg‘ona viloyatida 65,3%, Xorazm viloyatida 60,9% ni tashkil etdi.

Shu nuqtai nazardan, Toshkent shahar va Toshkent viloyatiga tashrif doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilangan maktabgacha ta’limga qamrab olishning maqsadli ko‘rsatkichlariga erisha olmagan. Jumladan, Toshkent viloyatida maqsadli qamrov ko‘rsatkichi 60% bo‘lishi belgilangan, yil yakuniga ko‘ra 54,4% ni, Toshkent shahrida maqsadli qamrov ko‘rsatkichi 100% bo‘lishi belgilangan, yil yakuniga ko‘ra 90,1% ni tashkil etganligini qayd etish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasiga muvofiq maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar qamrovining har yilgi maqsadli ko‘rsatkichlari belgilab olindi [5].

Yil yakuniga qadar Navoiy viloyati, Sirdaryo viloyati, Farg‘ona viloyati, Jizzax viloyati, Samarqand viloyati, Namangan viloyati, Buxoro viloyati, Andijon viloyati, Xorazm viloyati, Surxondaryo viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi tomonidan mazkur maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilgan bo‘lsa, Toshkent viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi 54,4% (maqsadli ko‘rsatkich – 57,4%), Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta’lim boshqarmasi – 42,4% (maqsadli ko‘rsatkich – 47,6%) va Toshkent shahar maktabgacha ta’lim boshqarmasi tomonidan – 90,1% (maqsadli ko‘rsatkich – 100%) maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalar qamrovining 2020-yilgi maqsadli ko‘rsatkichlari bajarilmagan.



Bundan tashqari, bugungi kunda 2018-2019-yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida bitim imzolangan, biroq moliyalashtirilmagan 263 ta loyihalarga imtiyozli kredit ajratish uchun 608,1 mlrd. so'm resurs mablag'iga ehtiyoj mavjud edi. Bu sohada oqsoqlik yuz berganini aytish zarur.

2017-2022-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturida Maktabgacha ta'lim vazirligiga yuklatilgan vazifalar to'liq bajarilishiga erishildi. Maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan qamrov va sifat ko'rsatkichlarga erishish, bunda maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning qamrov darajasini 60 foizga 6 yoshdagi bolalar qamrovini 75 foizga yetkazilishi ta'minlandi.

Investitsiya dasturi doirasida 376 ta obyektlarda qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish (17 ta yangi qurilish, 359 ta rekonstruksiya) hisobiga 29 428 ta hamda 333 ta davlat-xususiy sheriklik va 4 106 ta oilaviy nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali 148 602 ta qo'shimcha quvvatlar yaratilishiga erishish ishlari muvofiqlashtirib borildi.

Maktabgacha yoshdagi 6-7 yoshli bolalar uchun maktabga tayyorlov guruhlari **“Ilm yo'li”** o'quv dasturi ishlab chiqilib amaliyotga joriy etildi. Mazkur o'quv dasturi boshlang'ich ta'lim o'quv dasturlari bilan muvofiqlashtirildi. 4 668 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlariga optik tolali aloqa liniyalari o'rnatilib yuqori tezlikdagi internet tarmog'iga ulanishga erishildi. Respublika miqyosida 2023 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlariga noutbuklar yetkazib berildi. **“Bolalar bog'chasi” axborot boshqaruv tizimi** tatbiq etilib kelinmoqda.

14 ta pedagogika kollejlari negizida maktabgacha ta'lim tashkilotlari hamda 74 ta pedagogika kollejlari bazasida 6-7 yoshli bolalar uchun **“Ilm yo'li”** maktabga tayyorlov markazlari faoliyati yo'lga qo'yildi. Raqamli innovatsion-rivojlantirish platformasi orqali maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yuritib kelayotgan 6 mingga yaqin pedagog kadrlarning malakasi oshirilishiga erishildi. Shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetensiyasini oshirish bo'yicha hududiy onlayn seminar va anjumanlar tashkil etildi.

2020-yilda davlat-xususiy sherikchilik asosida 4 493 ta nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish hisobiga qo'shimcha 148 602 quvvat va 12 360 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Nodavlat sektorning ulushi 2017-yilga nisbatan 0,01 foizdan 20,7 foizga oshirildi. Xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish maqsadida 43,4 mln AQSh dollari miqdorida xalqaro kelishuvlarga erishildi hamda 7 ta loyihalar doirasida 7,2 mln AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

2020-yilda jami 417 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlarini amalga oshirish belgilangan va ushbu maqsadlarga jami 1 482,9 mlrd so'm ajratilgan. 376 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish ishlari yakunlangan va qo'shimcha 29 428 o'rinlar yaratilgan.

Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamonaviy mebel va boshqa jihozlar bilan ta'minlash bo'yicha mahsulot yetkazib beruvchi korxonalar bilan qiymati 105,2 mlrd



so'mlik shartnomalar imzolaniib, bunga ko'ra 15,8 mlrd so'mlik oldindan to'lov amalga oshirilgan bo'lib, hozirda mebel va jihozlarni joylarga yetkazib berish ishlari olib borilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasida hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hududlarga tashrifi davomida belgilangan maktabgacha ta'lim bilan qamrab olishning maqsadli ko'rsatkichlariga erishmagan Toshkent viloyati hamda Toshkent shahar maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshliqlari, shuningdek Qashqadaryo viloyati maktabgacha ta'lim boshqarmasi boshlig'i va boshliq o'rinbosariga nisbatan hayfsan intizomiy jazo choralari qo'llanildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-dekabrdagi PQ-4936-sonli qaroriga asosan 2021-yilda maktabgacha ta'lim tizimida yangi qurilish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash bo'yicha investitsiya maqsadli dasturi doirasida moddiy-texnik bazani yaxshilash maqsadida 225 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qurilish ta'mirlash ishlarini olib borish orqali, 14 mingdan ortiq yangi quvvat yaratdi. Shu jumladan: 22 ta yangi maktabgacha ta'lim tashkilotlari qurildi (2970 o'rin); bo'sh turgan 54 ta ob'yektni foydalanishga topshirildi (7135 o'rin); faoliyat ko'rsatayotgan 149 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotini rekonstruksiya qilish orqali ularning quvvati oshirildi (3985 o'rin).

2021-yilda Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOIA), AQSh dasturlarini amalga oshiruvchi "Mery orps" xalqaro nodavlat tashkiloti hamda Islom taraqqiyot banki va Quvayt arab iqtisodiy rivojlanish jamg'armasi bilan hamkorlikda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish maqsadida umumiy qiymati 43 mln AQSh dollariga teng loyihalarni amalga oshirish uchun mablag'larni jalb qilish rejalashtirilgan [6]. Qolaversa, hududlarda namunaviy loyihalar asosida barpo etilayotgan yangi uy-joy massivlarida yosh oilalar farzandlari uchun bolalar bog'chalari sonini ko'paytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Qarorga muvofiq, ayni shu maqsadda joylarda xorijiy tajribadan va mamlakatimizning iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda, namunaviy loyiha asosida 70 va 120 o'rinli 50 ta zamonaviy maktabgacha ta'lim muassasalarini bunyod etish hamda mavjud muassasalarning 1167 tasini rekonstruksiya qilish, 983 tasini mukammal ta'mirlash orqali kengaytirish nazarda tutilmoqda. Bu orqali bolalarning maktabgacha ta'limga qamrovini 1,5 barobar oshirishga erishildi.

Shu bilan birga, qarorga ko'ra qishloq joylardagi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar badal to'lovini 30 foizgacha kamaytirish orqali kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalar uchun yengillik yaratildi. Albatta, bu boradagi islohotlar samarasini soha talablariga to'liq javob bera oladigan kadrlarsiz tasavvur etish qiyin. Shu sababli tizimdagi pedagog xodimlar mahoratini ilg'ior usullar orqali muntazam oshirib borish mexanizmini yaratish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga keng tatbiq etgan holda, uzluksiz metodik xizmat ko'rsatish ishlarini takomillashtirish masalasi ham dolzarb sanaladi.

Ayni shu omillarni inobatga olgan holda qarorda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish o'quv reja va dasturlarini



zamonaviy pedagogik texnologiya va metodlarni inobatga olgan holda takomillashtirish vazifasi belgilangani ayni muddaodir. Chunki, biz o'z oldimizga farzandlarimizning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish maqsadini qo'ygan ekanmiz, shubhasiz, pedagog-tarbiyachilarning malakasini oshirish borasidagi mavjud tajribalarni zamonaviy talablar darajasida takomillashtirishimiz zarur. Shu bilan birga, maktabgacha ta'lim muassasalarini psixolog, defektolog kabi mutaxassislar bilan ta'minlash ham bugungi kun talabidir [7].

Shuning barobarida maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni maktabga tayyorlashda qisqa muddatli tayyorlov guruhlarining roli muhim sanaladi. Ayni shu sababli kelgusida bolalarni maktabga tayyorlashning muqobil shakli bo'lgan 6100 ta qisqa muddatli guruhlar tashkil etildi.

Qolaversa, maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilinmagan bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ota-onalarning pedagogik-psixologik bilimlarini oshirish ham maqsadga muvofiq sanaladi. Davlatimiz rahbarining mazkur qarorida 3-6 yoshdagi maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olinmagan bolalarni ularning ota-onalarini metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash orqali maktab ta'limiga tayyorlashni tashkil etishga alohida e'tibor qaratilgani bolalarni ta'limning keyingi bosqichiga tayyorlash darajasini yuksaltiradi.

Shu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyalanuvchilarni intellektual, jismoniy, axloqiy jihatdan tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishtirish, bolalarni maktabga sifatli tayyorlash maqsadida turli to'garaklar, ma'naviyat va ekologiya xonalari, kichik muzey, kutubxonalar tashkil etish borasidagi an'analarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq. Chunki kitobga, san'atga, ilmga, umuman, kelajakda muayyan kasbni egallashga bo'lgan qiziqish bolalarda ayni shu davrda shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-setabrdaqabul qilingan "Maktabgacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga asosan 2025-yil 1-yanvardan boshlab davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarining bo'sh turgan yerlarida davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yishga ruxsat etildi.

2026-2027o'quv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarini bitirgan bolalarga electron sertifikat berish tartibi joriy qo'yilishi belgilandi. Shuningdek, maktabgacha ta'limdasturi xalqaro standartlar asosida takomillashtirilishi yo'lga qo'yildi. Farmonga asosan amalga oshiriladigan quyidagi asosiy chora-tadbirlar belgilandi:

- 2025-yil 1-avgustgacha maktabgacha ta'limning davlat dasturi xalqaro standartlar asosida takomillashtiriladi va maktab tayyorlov guruhlarini boshlang'ich ta'lim dasturi o'zaro bog'lanishi;
- 2025-yil 1-yanvardan barcha tumanlarda kamida bitta tayanch maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyati yo'lga qo'yiladi va uning direktor o'rinbosarini malakali trener sifatida shakllantirilishi;
- 2025-yil 1-martdan uzoq hududlardagi pedagoglar uchun mobil malaka oshirish xizmatlari (4 ta avtobus) joriy etilishi;



• 2025-2026 o'quv yilidan davlat oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim yo'nalishi bo'yicha dual ta'lim shakli yo'lga qo'yilishi belgilandi [8].

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, ushbu yo'nalishda oldimizda turgan asosiy vazifalardan biri bu – mutasaddi tashkilotlar, fuqarolik jamiyati institutlari hamda OAV bilan hamkorlikda Prezidentimizning sohani yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan Qarorlari va Farmonlarida ilgari surilgan g'oyalar va vazifalarning mazmun-mohiyatini, bolalarni erta yoshdan rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirishda maktabgacha ta'lim muassasalarining roli va ahamiyatini aholi orasida yanada kengroq targ'ib qilishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi hisoblanadi. U bolaning sog'lom va rivojlangan shaxs bo'lib shakllanishini ta'minlab, o'qishga bo'lgan ishtiyoqini uyg'otadi, tizimli o'qitishga tayyorlab boradi. Shunday ekan, bu tizim faoliyatini yanada kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalarida har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga maktabgacha yoshdagi bolalarni keng jalb etish farzandlarimizning barkamol va yetuk shaxs bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2707-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/3090103>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-sonli qarori bilan tasdiqlangan 2017-2021-yillarga mo'ljallangan Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha Davlat dasturi // <https://www.google.com/search?q=Davlatimiz+rahbarining+qarori+bilan+tasdiqlangan+Maktabgacha+ta%E2%80%99lim+tizimini+yanada+takomillashtirish+bo%E2%80%99yicha+2017-2021-yillarga+mo%E2%80%99ljallangan+Davlat+dasturi>

3. Qaralsin: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 13.05.2019-yildagi 391-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Umumiy turdagi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida NIZOM" // <https://lex.uz/docs/-4333062>

4. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining 2023-yildagi faoliyati natijalari to'g'risida ma'lumot // <https://uzedu.uz/uz/news/1417>

5. Qaralsin: "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 08.05.2019-yildagi PQ-4312-sonli // <https://lex.uz/ru/docs/-4327235>

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2021-2023-yillarda O'zbekiston respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" // <https://lex.uz/docs/-5188512>

7. "2021-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 28-dekabrda PQ-4936-sonli Qarori // <https://lex.uz/docs/-5188512>



8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024-yildagi "Maktab-gacha ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni PF-152-son // <https://lex.uz/ru/docs/-7128182>

